



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
27-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Формирование здоровьесберегающей образовательной среды в начальной школе в условиях инклюзии.....	10
<b>Тургунова Нилуфар Абдусаломовна</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tez va aniq hisoblash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	16
<b>Dehqonova Maxliyoxon Shuhratjon, Musinjonova Dildoraxon Mahmudjon</b>	
Научно-педагогический анализ методов математического моделирования: численные и аналитические подходы в обучении студентов .....	19
<b>Мусурмонова Маъмура Оман кизи, Жураева Феруза Бахтиёр кизи, Сарсенбаева Мархабо Шадибековна</b>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish texnologiyasi.....	26
<b>Turdimurodova Muazzam Muzaffarbek qizi</b>	
M. Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" romanida bolalar obrazining tasviri masalasi .....	29
<b>Sattarov Farrux Nuridinovich</b>	
Pedagogik dasturiy vositalar yordamida dars sifatini oshirish .....	35
<b>D. K. Ibadullayev</b>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	41
<b>Isabekova Dilafruz Shermirzayevna</b>	
Молодёжь Узбекистана в системе политических процессов.....	46
<b>Юсупова Элеонора Фердинандовна</b>	
Математика o'qitishda zamonaviy yondashuvlar: vaziyatli tahlil va amaliy samaradorlik .....	51
<b>Matyaqubova Nazira Hikmat qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida rivojlantirishning metodik modeli.....	54
<b>Choriyev Olmosbek Baxriddin o'g'li</b>	
Fan va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish (CLIL) .....	60
<b>M. D. Boynazarova</b>	
Оптимизация показателей сердечного цикла у спортсменов при хроническом физическом перенапряжении посредством фармакологической поддержки .....	63
<b>Нормуратов Абдулла Саппарович</b>	
Chidamlilikka yo'naltirilgan sport turlarida uglevod va energiya almashinuvini farmakologik korreksiyasi....	67
<b>Normuratov Abdulla Sapparovich</b>	
O'quvchilarga dutor ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari .....	70
<b>Sa'dullayev Og'abek Abdurashid o'g'li, Nazirullayeva Nodira Akmal qizi</b>	
Bolalar musiqa va san'at maktablarida individual va jamoa mashg'ulotlarini tashkil etish mexanizmlari (cholg'u ijrochiligi misolida).....	74
<b>Omonova Charos Baxodir qizi</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashda interfaol metodlardan foydalanish.....	79
<b>Saidova Zulfizar Norbobo qizi</b>	
O'qituvchining kognitiv egizagi (Digital Twin): sun'iy intellekt yordamida individual pedagogik uslubni modellashtirish.....	83
<b>Kuchkarova Feruza Qambaraliyevna</b>	
Abdusamad Boboxo'jayev rahbarligida tarix va arxeologiya institutining rivoji: 1964-yilgi arxiv hujjati misolida .....	91
<b>Abdullayev Botir Jabbor o'g'li</b>	
Maktab o'quvchilarining musiqiy idrokni shakllantirishning ijtimoiy va didaktik zarurati.....	93
<b>Abdumannan Maxammatov</b>	



“Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiyani rivojlantirishning KAMOL modeli asosidagi pedagogik texnologiyasi” .....	97
<i>Abdurahmonova Dilorom Jovliyevna</i>	
Morphological Structure and Word Formation of Ecotourism Terminology: A Cross-Linguistic Analysis With Reference to the Uzbek Language.....	104
<i>Absamatova Charos</i>	
Fizika fanini o'tmda o'qitishda masalalar yechishning ilmiy-metodik ahamiyati .....	107
<i>Akmal Mustafoyev Isaqulovich, Munajat Mustafoyeva Oltibekovna</i>	
Kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili darslarida metakognitiv strategiyalar asosida akademik nutqni rivojlantirish ..	111
<i>Allamuratov G'ofur Ashurovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirish metodikasi .....	116
<i>Amanova Albina Dexqon qizi</i>	
Psychological Approaches in Teaching English in Preschool Education and their Effectiveness .....	120
<i>Berdiqulova Zamira Albertovna</i>	
The Role of Family, Education, and Community Systems in Shaping Individual Psychological Well-Being .	124
<i>Diibar Abdullayeva Ubaydullayevna, Iroda Panjiyeva Khayitovna</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	127
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	131
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda badiiy adabiyotning dolzarbligi .....	135
<i>Hasanova X. Z.</i>	
Gospital ta'lim sharoitida ona tili fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	139
<i>Hikmatov Bobobek Saydulloyevich</i>	
ASB bo'lgan bolalarda sensor buzilishlarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri .....	142
<i>Isaxanova Oybarchin Abduraxim qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda kommunikativ faoliyat samaradorligining pedagogik mexanizmlari .....	146
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna</i>	
David haykali ko'z bo'lagining qalamtasvirini bajarish usullari.....	149
<i>Mo'minov Baxtiyor Karamatovich</i>	
Ta'limda fanlararo integratsiyadan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari .....	154
<i>Oblakulova Nodira Abduvali qizi</i>	
Ellipslarni tasviriy san'at va muhandislik grafikasida yasash metodikasi.....	160
<i>Sheraliyev Sanjarbek Karimberdiyevich</i>	
Kommunikativ strategiyaning yuzaga kelish omillari .....	170
<i>Normaxmatova Feruza Ruziboyevna</i>	
Umumta'lim maktab musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammo va yechimlari .....	174
<i>O'rishboyeva Xumora O'rol qizi</i>	
Maktabda jismoniy tarbiya darslarida futbol elementlaridan foydalanib 10-11 yoshli bolalarda tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish uslubiyati .....	177
<i>Qurbonbayeva Maftuna G'ayrat qizi</i>	
Maktabda darsdan tashqari futbol to'garaklarida o'quvchilarning tezkor-kuch qobiliyatlarini takomillashtirish .....	182
<i>Ro'ziboyeva Fotima Quدرات qizi</i>	
Matn ustida ishlash samaradorligini baholash mezonlari .....	187
<i>Sadarova Nilufar</i>	
Neyroestetik stimurning yosh dinamikasidagi roli: kognitiv emotsional sferani qayta tashkil etish mexanizmlari.....	193
<i>Salaxidinova Xolida Xaliljonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Kasbiy ta'limda o'quvchilarning psixologik va axloqiy sifatlari ..... 198 Salomov Abdurasul Axmadovich
	Funksiyaning hosilasi yordamida o'sish va kamayish oraliqlarini aniqlash metodikasi ..... 201 Sherzad Eshjanovich Bekchanov, Shohida Sadullaeva Ziyadullaeva, Abdusalom A. Xudoyberdiev
	Bo'lajak tarbiyachilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda psixologik treninglarning nazariy va amaliy asoslari..... 205 Sojida Safarova Saxadin qizi
	Destruktiv xulq-atvor psixologik va pedagogik qarovsizlik oqibati sifatida..... 207 Umirzoqova Shodiya Lutfullo qizi
	Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish ..... 210 Xoldorova Mashxura G'ulomovna
	Роль антиоксидантной системы в повышении работоспособности спортсменов ..... 214 Нурбаев Бахтиёр Шириневич
	Shaxs irodaviy sohasini rivojlantirishning psixologik determinantlari..... 217 To'ychiyeva Shoyista Jumabayevna
	Ta'lim jarayonida va talabalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati ..... 223 X. Xalilova, N. Niyazova
	Optimization of Periodontal Disease Treatment Tactics in Patients With Chronic Hepatitis C After Achieving a Sustained Virological Response ..... 227 Makhmudova Ugiloy Bakhtiyorovna
	Pathogenetic and Clinical Rationale for the Prevention and Management of Periodontal Diseases in Workers Within Dust-Hazardous Environments ..... 230 Turumova Marjona Bakhodirovna
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining boshqaruv faoliyati va kasbiy madaniyati ..... 233 Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Soloyeva Rayhonoy Ravshanbek qizi
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan ijodiy muhitni tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslari ..... 236 Sultanov Xaytboy Eraliyevich
	Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat orqali o'smirlarda huquqbuzarlik profilaktikasining pedagogik asoslari ..... 241 Umarov Qobiljon
	Maktab o'quvchilari orasida kiberbulling profilaktikasi yo'llari ..... 245 Jannazarova Juldizxan Aliiyar qizi
	Kimyo ta'limi jarayonida kreativ yondashuv asosida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ..... 250 Allaberdiyeva Zebinisobegim Ismoiljon qizi
	Universality in Phraseological Units in English, Dutch and Uzbek ..... 253 Khaydarova Guzalkhon
	Texnologik ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: universitet darajasida istiqbollor ..... 256 Musurmonova Ma'mura Oman qizi, Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna
	Chet el va mahalliy tajribalarda muhandislik musobaqalari samaradorligi ..... 261 N. Nomozova, A. Muxamadiyev
	Autizm spektri buzilishlarining klinik-pedagogik xususiyatlari va ularni korreksiyalashning ilmiy asoslari..... 267 Polatova P. M., Polvonova Kishchan Ravshanovna
	Tenglamalar ildizlarini aniqlashda vatarlar usuli va python dasturiy modeli ..... 272 Rizayeva Bahoroy Jahongir qizi
	Algebra fanini o'rganishda talabaning xatolarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish usullari ..... 277 Zaxiriddinova Shahlo Zahiriddin qizi, Norboyeva E'zoza O'tabek qizi, Oqbutayeva Sumbula Normuhammad qizi
	Интегрированный подход как основа развития русской связной речи иноязычных студентов неязыковых специальностей ..... 280 Бозорова Хулкар Одинакуловна



Оптимизация трудовых отношений в системе общего среднего образования на основе HR-менеджмента: эмпирический анализ.....	284
<b>Турикова Лазокат Машрабовна</b>	
Pedagoglarning huquqiy maqomi hamda global kompetensiyalar bilan bog'liq muammo va yechimlar.....	296
<b>Javohir Baxtiyorovich Shukurov</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asoslari.....	305
<b>Holikulova Feruza Xasanovna</b>	



# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHNING KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSLARI

Holikulova Feruza Xasanovna

Navoiy davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası v.b. professori,  
 pedagogika fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida kommunikativ yondashuvdan foydalanishning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Tadqiqotda og'zaki nutq faqat til birliklarini to'g'ri talaffuz qilish yoki grammatik me'yorlarga rioya etish bilangina cheklanmasligi, balki o'quvchining fikrini mantiqli, izchil, vaziyatga mos va erkin ifodalash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Kommunikativ yondashuv o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ko'rib, nutqiy faoliyatni real muloqot vaziyatlari bilan bog'lashni nazarda tutadi. Maqolada dialog, suhbat, rolli o'yin, muammoli savol, hikoya tuzish va vaziyatli topshiriqlar orqali o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kommunikativ yondashuv boshlang'ich sinflarda og'zaki nutqning lug'aviy boyligi, izchilligi, ifodaliligi va muloqotga yo'naltirilganligini rivojlantirishda samarali metodik asos bo'la olishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, og'zaki nutq, kommunikativ yondashuv, nutqiy faoliyat, dialogik nutq, monologik nutq, kommunikativ kompetensiya, metodika.

**Abstract:** This article examines the theoretical and methodological foundations of using the communicative approach in developing oral speech among primary school pupils. Oral speech is interpreted not only as the correct pronunciation of language units and observance of grammatical norms, but also as the learner's ability to express thoughts logically, coherently, freely and appropriately to the communicative situation. The communicative approach views the pupil as an active subject of the educational process and connects speech activity with real communication contexts. The article analyzes the possibilities of increasing pupils' speech activity through dialogue, conversation, role play, problem-based questions, storytelling and situational tasks. The findings show that the communicative approach can serve as an effective methodological basis for developing vocabulary richness, coherence, expressiveness and communicative orientation of oral speech in primary education.

**Key words:** primary education, oral speech, communicative approach, speech activity, dialogic speech, monologic speech, communicative competence, methodology.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретико-методические основы использования коммуникативного подхода в развитии устной речи учащихся начальных классов. Устная речь рассматривается не только как правильное произношение языковых единиц и соблюдение грамматических норм, но и как способность учащегося логично, последовательно, свободно и адекватно речевой ситуации выражать свои мысли. Коммуникативный подход предполагает рассмотрение ученика как активного субъекта образовательного процесса и связывает речевую деятельность с реальными ситуациями общения. В статье анализируются возможности развития речевой активности учащихся посредством диалога, беседы, ролевых игр, проблемных вопросов, составления рассказов и ситуативных заданий. Результаты исследования показывают, что коммуникативный подход является эффективной методической основой развития словарного богатства, последовательности, выразительности и коммуникативной направленности устной речи учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** начальное образование, устная речь, коммуникативный подход, речевая деятельность, диалогическая речь, монологическая речь, коммуникативная компетенция, методика.

## KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bola shaxsining intellektual, ijtimoiy, axloqiy va nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o'quvchi atrof-muhitni anglash, o'z fikrini ifodalash, boshqalar bilan muloqotga kirishish, savol berish, javob qaytarish, eshitgan va o'qiganlarini qayta bayon qilish kabi muhim nutqiy ko'nikmalarni egallaydi. Og'zaki nutq bolaning bilish faoliyati, tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, emotsional kechinmalari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u nafaqat ona tili darslarida, balki barcha fanlarni o'zlashtirish jarayonida ham asosiy vosita vazifasini bajaradi. Shuning uchun boshlang'ich sinf

o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va metodika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

An'anaviy ta'limda og'zaki nutq ko'pincha matnни qayta hikoya qilish, savollarga javob berish yoki yodlangan she'rni ifodali aytish orqali shakllantirilgan. Bunday yondashuv muayyan darajada samarali bo'lsa-da, o'quvchining erkin fikrlashi, mustaqil mulohaza yuritishi, o'z pozitsiyasini asoslab berishi hamda turli kommunikativ vaziyatlarda nutqdan maqsadli foydalanishini yanada kengroq rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni talab etadi. Zamonaviy ta'lim esa bolani tayyor bilimlarni qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki faol muloqot subyekti sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan, kommunikativ yondashuv og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali metodik asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ yondashuvning mohiyati shundan iboratki, unda til o'rganish va nutqni rivojlantirish jarayoni real muloqot ehtiyojlari bilan bog'lanadi. O'quvchi gapirish uchun emas, balki fikr bildirish, savol berish, bahslashish, tushuntirish, izohlash, munosabat bildirish va hamkorlik qilish uchun nutqdan foydalanadi. Bunda nutqiy faoliyat sun'iy mashqlar doirasidan chiqib, hayotiy vaziyatlar, o'quv muammolari, ijodiy topshiriqlar va ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'unlashadi. Natijada o'quvchi nutqi mazmunan boyiydi, mantiqan izchillashadi, emotsional-ifodaviy jihatdan tabiiylashadi hamda kommunikativ vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning nazariy-metodik asoslarini aniqlash va uning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini yoritishdan iborat. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda og'zaki nutqni rivojlantirish masalasi faqat lingvistik yoki grammatik jarayon sifatida emas, balki kommunikativ, psixologik, didaktik hamda ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida talqin qilinadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda pedagogik, psixologik va lingvometodik manbalarni nazariy tahlil qilish, boshlang'ich ta'lim jarayonidagi nutqiy faoliyatni kuzatish, kommunikativ topshiriqlar mazmunini qiyosiy o'rganish, umumlashtirish hamda metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Nazariy tahlil jarayonida og'zaki nutq, nutqiy faoliyat, kommunikativ kompetensiya, dialogik va monologik nutq tushunchalarining mazmuni ilmiy manbalar asosida o'rganildi. Shuningdek, kommunikativ yondashuvning boshlang'ich ta'limdagi vazifalari, tamoyillari va amaliy qo'llanish imkoniyatlari metodik jihatdan tahlil qilindi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Kuzatish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonidagi nutqiy faolligi, savollarga javob berish sifati, o'z fikrini mustaqil bayon qilish darajasi, juftlik va guruhda ishlash paytidagi muloqot madaniyati, hikoya tuzish hamda qayta bayon qilishdagi izchillik kabi jihatlariga e'tibor qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayrim o'quvchilarning og'zaki nutqida lug'at boyligini kengaytirish zarurati, gap qurilishining soddaligi, fikrni asoslashda qo'shimcha ko'nikmaga ehtiyoj, javoblarning qisqa va bir xil shaklda bo'lishi, muloqotda tashabbuskorlikni yanada rivojlantirish zarurati kabi holatlar kuzatiladi. Mazkur jihatlarni takomillashtirishda kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar muhim metodik imkoniyatga ega ekanligi aniqlandi.

Metodik modellashtirishda og'zaki nutqni rivojlantirish jarayoni o'zaro bog'liq uch bosqichda talqin qilindi. Birinchi bosqichda o'quvchida muloqotga ehtiyoj va nutqiy motivatsiya shakllantiriladi. Ikkinchi bosqichda o'quvchi muayyan kommunikativ vaziyatda fikr bildirish, savol berish, javobni kengaytirish, mulohaza yuritish hamda munosabat bildirishga o'rgatiladi. Uchinchi bosqichda esa o'quvchining nutqi mustaqil, izchil, ijodiy va vaziyatga mos shaklda rivojlantiriladi. Mazkur bosqichlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular nutqiy faoliyatni oddiy takrorlashdan ongli muloqotga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuv bir qator muhim pedagogik samaralarni yuzaga chiqarishini ko'rsatdi. Avvalo, ushbu yondashuv o'quvchini faol fikrlashga undaydi. Oddiy savol-javob yoki tayyor matnни qayta aytish jarayonida o'quvchi ko'pincha o'qituvchi kutgan javobni topishga intiladi. Kommunikativ vaziyatga asoslangan topshiriqlarda esa u o'z fikrini tanlaydi, uni ifodalash yo'lini izlaydi, suhbatdoshining fikriga munosabat bildiradi hamda nutqiy vazifani bajarishga harakat qiladi. Bu jarayonda til bilimlari amaliy nutqiy ehtiyoj bilan uzviy bog'lanadi.

Kommunikativ yondashuv og'zaki nutqning dialogik shaklini rivojlantirishda ayniqsa samarali hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatan muloqotga moyil bo'ladilar, biroq ularning suhbat qurish, navbat bilan gapirish, suhbatdosh fikrini tinglash, savolni to'g'ri berish va javobni davom ettirish ko'nikmalari maxsus pedagogik rahbarlikni talab qiladi. Dialogik topshiriqlar orqali o'quvchilar bir-birining fikrini eshitishga, javobni aniqlashtirishga, rozi yoki qarama-qarshi fikrini madaniyatli ifodalashga, nutqiy vaziyatga mos so'z va iboralarni tanlashga o'rganadilar. Bu esa nafaqat til o'rganish, balki ijtimoiylashuv jarayonini ham qo'llab-quvvatlaydi.



Monologik nutqni rivojlantirishda ham kommunikativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. O'quvchidan faqat matnни yodlab aytish emas, balki kuzatgan voqeasi, o'qigan hikoyasi, ko'rgan rasmi, bajargan ishi yoki shaxsiy taassuroti haqida mustaqil fikr bildirib berish talab etilganda, uning tafakkuri va nutqi birgalikda faollashadi. Bunda o'quvchi avval fikrni rejalashtiradi, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratadi, gaplarni mantiqiy tartibda bog'laydi, so'zlarni maqsadga muvofiq tanlaydi hamda nutqning ta'sirchanligiga e'tibor qaratadi. Kommunikativ yondashuv monologik nutqni hayotiy mazmun bilan boyitadi va uni mexanik qayta hikoya qilishdan ijodiy bayon darajasiga olib chiqadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, og'zaki nutqni rivojlantirishda vaziyatli topshiriqlar muhim o'rin tutadi. Masalan, o'quvchiga "do'stingizni kitob o'qishga taklif qiling", "sinfdoshingizga yo'lni tushuntiring", "ertak qahramoniga maslahat bering", "rasmdagi voqeani davom ettiring" kabi topshiriqlar berilganda, u nutqdan aniq kommunikativ maqsad uchun foydalanadi. Bunday topshiriqlar nutqni tabiiylashtiradi, o'quvchining tasavvurini kengaytiradi, so'z boyligini faollashtiradi hamda fikrni vaziyatga mos bayon qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, o'quvchi o'z nutqining tinglovchiga ta'sirini his qila boshlaydi.

Kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'qituvchining roli ham o'zgaradi. U faqat bilim beruvchi va javobni baholovchi shaxs emas, balki muloqotni tashkil etuvchi, yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi hamda nutqiy muhit yaratuvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchi o'quvchining xatosini darhol to'xtatib qo'yishdan ko'ra, uning fikrini davom ettirishga undashi, to'g'ri ifoda variantini muloyimlik bilan ko'rsatishi, boshqa o'quvchilarni suhbatga jalb qilishi va nutqiy faoliyat uchun qulay psixologik muhit yaratishi zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarda gapirishdan tortinmaslik, o'z fikrini erkin ifodalash hamda muloqotga ishonch bilan kirishish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda kommunikativ yondashuvni qo'llash pedagogik jarayonning mazmuni va shaklini sezilarli darajada boyitadi. Bu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, u o'quvchining nutqini real kommunikativ ehtiyoj bilan bog'laydi. Nutq bolaning tashqi faoliyati bo'lish bilan birga, uning ichki tafakkur jarayonlarini ham aks ettiradi. Lev Vygotskyning tafakkur va nutq haqidagi qarashlariga ko'ra, nutq bolaning fikrlash faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bola so'z vositasida nafaqat fikrini ifodalaydi, balki uni shakllantiradi. Shu nuqtayi nazardan, og'zaki nutqni rivojlantirish bolaning tafakkurini, idrokini va ijtimoiy tajribasini rivojlantirish bilan birgalikda olib borilishi lozim.

Kommunikativ yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari bilan ham uyg'unlashadi. Har bir o'quvchining nutqiy tajribasi, oilaviy muhiti, lug'at boyligi, emotsional holati va muloqotga kirishish darajasi turlicha bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi barcha o'quvchilardan bir xil tezlikda va bir xil shaklda javob kutmasligi, aksincha, har bir bolaning individual imkoniyatini hisobga olgan holda nutqiy vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirishi kerak. Nutqi sustroq o'quvchilar uchun tayanch so'zlar, rasm, savol namunasi, gap boshlanishi yoki juftlikdagi suhbat yordam berishi mumkin. Nutqi faol o'quvchilar esa mustaqil hikoya tuzish, munozarada qatnashish, guruh fikrini umumlashtirish kabi murakkabroq topshiriqlarga jalb qilinadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihatga e'tibor qaratish lozim: kommunikativ yondashuv grammatik va leksik bilimlarni inkor etmaydi, balki ularni amaliy nutqiy vazifaga bo'ysundiradi. O'quvchi so'z turkumlari, gap bo'laklari yoki imlo qoidalarini alohida yodlash orqali emas, balki ulardan nutqda to'g'ri va o'rinli foydalanish orqali chuqurroq o'zlashtiradi. Masalan, sifatlarni o'rganish jarayonida o'quvchilar buyumni tasvirlaydi, fe'llarni o'rganishda harakatni izohlaydi, bog'lovchilarni o'rganishda esa fikrlar orasidagi munosabatni ifodalaydi. Bu holat til materialining kommunikativ mazmun bilan bog'lanishini ta'minlaydi.

Og'zaki nutqni rivojlantirishda sinfdagi nutqiy muhit ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar darsda faqat o'qituvchi gapirsa, o'quvchilar esa tinglovchi yoki qisqa javob beruvchi sifatida qolsa, kommunikativ kompetensiya yetarli darajada shakllanmaydi. Dars jarayonida o'quvchilar bir-biri bilan fikr almashishi, savol berishi, juftlikda ishlashi, guruh fikrini himoya qilishi hamda o'z javobini asoslab berishi uchun yetarli vaqt va imkoniyat yaratilishi zarur. Bunday muhitda o'quvchi nutqni baho olish vositasi sifatida emas, balki fikr almashish, hamkorlik qilish va o'zini namoyon etish vositasi sifatida qabul qiladi.

Kommunikativ yondashuvning samaradorligi topshiriqlarning mazmuniga ham bog'liq. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun topshiriqlar yosh xususiyatlariga mos, hayotiy, qiziqarli, emotsional jihatdan yaqin va ijodiy bo'lishi kerak. Juda murakkab yoki sun'iy vaziyatlar bolaning nutqiy faolligini pasaytiradi. Aksincha, oilaviy munosabatlar, do'stlik, tabiat, maktab hayoti, ertak qahramonlari, o'yin, mehnat, bayram va kundalik hayotga oid mavzular o'quvchini gapirishga undaydi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, odob-axloq me'yorlari, hurmat, mehr, hamkorlik va mas'uliyat kabi tarbiyaviy mazmun ham nutqiy faoliyat bilan uyg'unlashadi.

Shuningdek, kommunikativ yondashuv baholash tizimiga ham yangicha qarashni talab qiladi. Og'zaki nutqni baholashda faqat xatosiz gapirish emas, balki fikrning aniqligi, izchilligi, mazmunning boyligi, suhbatdosh bilan muloqotga kirisha olish, savolga munosabat bildirish, nutqning vaziyatga mosligi va ifodaliligi kabi mezonlar ham hisobga olinishi kerak. O'quvchi nutqidagi har bir xato salbiy baho sifatida emas, balki keyingi rivojlanish uchun metodik imkoniyat sifatida ko'rilsa, bola nutqiy faoliyatdan cho'chimaydi va asta-sekin o'z nutqini takomillashtirishga intiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u bolaning tafakkuri, ijtimoiy faolligi, o'quv motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Kommunikativ yondashuv ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun keng metodik imkoniyat yaratadi. Mazkur yondashuv asosida o'quvchi tayyor bilimni takrorlovchi emas, balki fikr bildiruvchi, savol beruvchi, munosabat ifodalovchi, suhbatda qatnashuvchi va nutqiy vazifani hal qiluvchi faol subyekt sifatida shakllanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv og'zaki nutqning dialogik va monologik shakllarini uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Dialogik topshiriqlar o'quvchilarda tinglash, javob qaytarish, savol berish va muloqot madaniyatini shakllantirsa, monologik topshiriqlar fikrni mustaqil, izchil va mantiqli bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Vaziyatli mashqlar, rolli o'yinlar, muammoli savollar, hikoya tuzish va ijodiy suhbatlar o'quvchining nutqiy faolligini oshiradi hamda til birliklarini amaliy qo'llash imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda og'zaki nutqni rivojlantirishning kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilishi o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, lug'at boyligini kengaytirish, fikrlash izchilligini kuchaytirish hamda ijtimoiy muloqotga tayyorlashda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu yo'nalishda kommunikativ topshiriqlar tizimini sinflar kesimida ishlab chiqish, og'zaki nutqni baholash mezonlarini takomillashtirish va raqamli ta'lim vositalari bilan integratsiyalashgan metodik modellarni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ metodlar bo'yicha kasbiy kompetensiyasini oshirish, dars jarayonida interfaol usullar va innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'quvchilarning erkin fikrlashi, mustaqil mulohaza yuritishi, nutqiy faolligini namoyon etishi hamda ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
2. Леонтьев А. А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969. – 214 с.
3. Эльконин Д. Б. Психология обучения младшего школьника. – М.: Знание, 1974. – 64 с.
4. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.
5. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2004. – 384 с.
6. Якубинский Л. П. Избранные работы: язык и его функционирование. – М.: Наука, 1986. – 205 с.
7. Гальперин П. Я. Введение в психологию. – М.: Книжный дом "Университет", 1999. – 332 с.
8. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 240 b.
9. Abdullayeva Q., Safarova R. Boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 192 b.
10. Dell Hymes. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / ed. by J. B. Pride, J. Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.